

TELEFON ASRIDA KITOBNING QADRI

Nargiza Atayeva*Urganch davlat universiteti Filologiya
va san'at fakulteti 1-kurs talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada kitobning inson hayotidagi ahamiyati, zamonaviy yoshlar orasida kitobga qiziqishning kamayishi va bunda ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri muhokama qilinadi. Shuningdek, kutubxonalarni ko'paytirish va zamonaviy sharoit yaratish orqali yoshlarni kitobga jalb qilishning ahamiyati ta'kidlanadi.

Bugun inson qo'lidan telefonni olib qo'ysangiz, go'yo butun dunyosini tortib olgandek bo'lasiz. Vaqt, diqqat, fikr- barchasi kichik ekran ichiga jamlangan. Ammo shu ekranlar soyasida bir haqiqat sekinlik bilan yo'qolib bormoqda: kitobga bo'lgan ehtiyoj. Ilgari bilim manbayi bo'lgan kitob bugun javonlarda chang bosib yotibdi, telefon esa ongimizni band etgan. Xo'sh, telefon asrida kitobning qadri qayerda qoldi?

Rivoyat qilinishicha, Buxoro hukmdori Nuh ibn Mansur og'ir xastalikka chalinadi. Uni Abu Ali ibn Sino davolaydi. Evaziga oltin-u kumush bermochi bo'lganlarida, tabib saroy kutubxonasidan foydalanish imkoniyatini so'raydi. Demakki, ushbu rivoyatdan chiqariladigan xulosa shuki, kitob va bilim inson uchun har qanday boylikdan ham ustun. Bugungi kunda esa yoshlar orasida kitob o'qishga qiziqish kamayib, o'zni telefon va ijtimoiy tarmoqlar bilan to'lib bormoqda.

Kitob- bilimning bitmas-tuganmas bulog'idir. Bu buloqdan bahra olmagan inson johillikka yuz tutadi. Bunday inson har qanday tubanlikka qo'l urishi, vijdon va insoniyligini arzimagan narsaga sotib yuborishi mumkin. Jamiyatda kitobxonlik qay darajada keng ommalashgan bo'lsa, ziyo ahli shunchalik ko'p bo'ladi. O'z navbatida, bu joyda umuminsoniy qadriyatlar barqaror turmush tarziga aylanadi. Bugungi kunda ko'plab yoshlar bilimsizligi tufayli internetdagi g'araz niyatli kimsalarning domiga ilinib, qanchadan qancha qotilliklarga qo'l urmoqda. Ammo kitob o'qigan inson bunday qabihliklarga yo'l qo'ymasligi aniq. Amir Temur aytganidek: "Kitob barcha bunyodkorlik, yaratuvchanlik va aql-idrokning, ilm-u donishning asosidir. Hayotni o'rgatuvchi murabbiydir". Ajdodlarimiz ilm o'rganish, kitob o'qishga hamisha eng muhim vazifa sifatida qarab kelishgan. Qur'oni Karimning ilk nozil bo'lgan oyati "O'qi" amri bo'lgan. Tarixdan bizga ma'lumki, ilgari Yassaviy, navoiy, Bobur, Bedil, Fuzuliy, Maxtumlul, Mashrab g'azallarini yod bilmaslik or sanalgan. O'tmishda xorijdan yurtimizga sayohat yoki tijorat niyatida kelgan mashhur shaxslar bu yerdagi kutubxonalar va kitob do'konlarining ko'pligi hamda ularning xilma-xilligini ko'rib hayratlanganlar. Bugun esa shaharlarimiz kiyim do'konlari, restoran va kafelar bilan

to'la. Kutubxonalar esa sanoqligina, xolos. Shu bois, shaharlarda kutubxonalar sonini ko'paytirish va ularni zamonaviy muhit bilan ta'minlash zarur. Internet, muhokama maydoni va sokin o'quv xonasi bilan jihozlangan kutubxona yoshlarni tabiiy ravishda kitobga tortadi. Bir tarafdin, bugungi davrning o'zi bizni telefondan foydalanishga majbur qilyapti. Jumladan, ta'lim va baholash tizimi elektron shaklga o'tgan. Yangiliklar, e'lonlar, muhim xabarlar hammasi telefonda taqdim etiladi. Talabalar foydalanishi uchun zarur bo'lgan ilmiy kitoblar ko'pincha kutubxonadan topilmaydi yoki juda kam. Biz xohlamasak ham telefon va boshqa qurilmalardan foydalanishga majburmiz. Natijada ko'plab chalg'ituvchi narsalar oqibatida besh daqiqada o'chiraman degan telefonimiz oldida soatlab qolib ketamiz. Bu esa kitob o'qish va haqiqiy bilim olishga ajratiladigan vaqtni yanada qisqartiradi. Boshqa tarafdin, insonning ko'z salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Kitob o'qigan odam bilimli, odobli bo'ladi, oq-qorani ajrata oladi va dunyoqarashi, fikrlashi jihatdan boshqalardan ajralib turadi. Asar va boshqa turdagi kitoblarni o'qishni xushlamaydigan kishilar esa hayotning go'zalliklarini ko'ra olmaydilar, sinovlardan to'g'ri xulosa chiqarish va hayotdagi qiyinchiliklarga bardoshli bo'lishni bilmaydilar. Xalqimiz aytganidek: "Kitob ko'rmagan bosh- giyoh unmagin dala"ga o'xshab qoladi. Eynshteyn o'zining bir nazariyasida miyani velosipedga o'xshatgan, ya'ni pedalni harakatlantirsa oldinga siljib harakatlanadi. To'xtab qolsa, velosiped yiqiladi va shu turgan joyida qolib ketadi. Kitobdan zavq ololmagin insonlar ham xuddi shunday holatga tushib qoladilar. Ularning ko'zida bu kitoblar shunchaki zarhal muqova va siyohda yozilgan bir gala harflarning tizilmasi, xolos. Lekin ular bilishmaydiki, kitob muqovasi zarhalli bo'libgina qolmay, ichidagi mazmuni ham oltinga tengdir. Aytishadi-ku, tashqi go'zallik o'zining pinhoniychki olami bilan yanada qimmatliroqdir.

Tasavvur qilaylik: bog' ichida kitob varaqlayotgan qiz yoki uning telefon o'ynayotgan tengquri. Metroda biror qizga tegajoqlik qilayotgan yoki kitob o'qib ketayotgan yigit. Xo'sh, sizningcha, qay biri go'zalroq? Qay biri ma'nan sog'lomroq? Istaysizmi-yo'mi kitob o'qiyotgan insonni qalban hurmat qilishga o'zingizda moyillik sezasiz. Telefonda ham, kompyuterda ham turli kitoblar o'qib ko'rganman, ammo Hofiz Sheroziy yoki Mashrab devonini yoningizda qo'ying-da, uning "elektron nusxasi"ni ham oching. Satrlarni o'qiy boshlasangiz Hofiz yoki Mashrab kitob shaklida, satrlar ichida shivirlab turganday bo'ladi. "Elektron nusxa"da esa buni his qila olmaysiz. Faqatgina she'ning ta'mini sezasiz. "Qur'oni Karim"ni elektron va kitob shaklida bir o'qib varaqlang... Kitob shaklida varaqlasangiz U bilan Sizning orangizda to'siq yo'qdek, o'zingizni unga yaqindek his qilasiz.

Mutolaa jarayonida inson shunaqangi taassurotlar, tuyg'ular olamiga sho'ng'iydiki, bularni na kino, na teatr, na musiqa, na rassomlarning asarlari bera oladi. Ta'bir joiz bo'lsa, insonda tuyg'uni faqat kitob shakllantiradi. Kitobdan ko'ra

taqinchoq qimmat mamlakatda “o`g`ri va chayqovchilar” ko`proq bo`ladi. Kitob o`qigan elat boshida qanday inson turganini, boshida turgan inson esa qanday elatga hukmronlik qilayotganini yaxshi anglaydi. Kitob mutolaasining jamiyat hayotidagi o`rni haqida so`z ketganda ummon ortidagi bir holat yodga tushadi. AQSHda hibsxonalarning deyarli aksariyati xususiy. Yildan-yilga yangi jazoni ijro etish muassasalari quriladi. Turli shtatlarda bunday muassasalar soni har xil. Ularning soni jinoyatchilik oshishi yoki turshishi ko`rsatkichiga qarab belgilanadi. Qamoqxona biznesi bilan shug`ullanuvchi kompaniya bundan o`n yil keyin falon shtatda qancha qamoqxona qurish kerakligini aniqlashda ular juda ajoyib usuldan foydalanishadi. Ular aholining kitobxonlik darajasini aniqlash maqsadida ommaviy so`rov o`tkazishadi. Mutolaa darajasi past hududlarda qamoqxonalar sonini ko`paytirishadi. Buni qarangki, ularning bu qarori to`g`ri bo`lib chiqadi. Aniqlanishicha, qaysi hududda yoshlar qancha kam kitob o`qisa o`sha hududda besh-o`n yildan so`ng jinoyatchilik oshar ekan. Kitob o`qimagan millatdan, bozorchi xotin-xalajdan al-Xorazmiy yoki Beruniyni qayta kutish, Vatan ravnaqiga chin ma`noda hissa qo`shadigan allomalarni kutish borib turgan “kitob”sizlikdir.

Kitob mutolaasi nafaqat birgina insonni, butun xalqlarni ham tanazzulga yuz tutishdan saqlaydi. Qadimgi Rim, qadimgi yunonlarning ham yuksalishida kitob alohida mavqe kasb etganki, hozirgacha, hozirgi davlatlarning tuzilmasigacha, san`atigacha qadim Yunoniston “kitob”lari asos sifatida xizmat qilib kelmoqda. Demokratiya deymizmi, Senat deymizmi, Haykaltaroshlik deymizmi yoxud Sangtaroshlik, barchasida “yunon” asosi bor. Buni inkor qilib bo`lmaydi. Moziyning guvohlik berishicha, Arastuning ishongan shogirdi, yarim dunyo hukmroni sarkarda-Makedoniyalik Iskandar ham o`zining qisqa umri davomida kitob o`qishga, tinimsiz ilm olishga moyil bo`lib yashagan. “Iliada” dostonini askarlariga harbiy qo`llanma sifatida o`qitgan. Bu kitob unga barcha janglarida hamroh bo`lgan. O`zi aziz bilib o`qiyotgan kitobini doimo yostiq ostiga bitta xanjar bilan birga qo`yib yotgan.

Kitoblari yo`qotilgan yurtlar doimo tanazzulga yuz tutgan. Bosqinchilar hamisha bosib olgan yurtlarining madaniyatini, ma`naviyatini, ota-bobosidan qolgan tarixini- “kitob”ini yo`qotishga harakat qilganlar. Kitobi yo`q xalq esa o`zgalarning kitobini o`qishga majbur bo`ladi, o`zgalarning yozgan kitoblari asosida yashaydi. Buyuk Rimning tanazzuli Iskandariya kutubxonasi yoib yuborilishidan boshlandi. Olimlarimiz, kitoblarimiz chiqib ketib bizning tanazzul boshlandi. Ulug`bek kutubxonasining tugatilishi bilan temuriylarning parchalanishi boshlandi. Savollar ko`payadi. Ayni dam, “kitobsevarlik” jarayoni kechayotgan paytda o`qiydigan kitoblarimiz qani? London muzeyidami, Ermitaj muzeyidami? Kitobga munosabatimiz qanday? Qanaqa kitob o`qiyapmiz? Qanaqa kitoblar chop qilyapmiz? Davlatning puli, olam-olam qog`ozlar nimaga sarf bo`lyapti?

Bugun ayrim ota-onalar farzandiga kitob o`qi deya nasihat qilarkan, o`zlari telefon ekranidan bosh ko`tarmay o`tirganiga guvoh bo`lamiz. Holbuki, bola eshitgan gapidan ko`ra ko`rganini tezroq qabul qiladi. O`qimaydigan ota-onadan kitobxon farzandni kutish qanchalik to`g`ri? Menimcha, farzandni kitobga oshno qilish uchun, avvalo, ota-onaning o`zi kitob bilan do`st bo`lishi kerak. Chunki bola tarbiyasida so`zdan ko`ra amal kuchliroq ta`sir qiladi. Agar ota-ona bo`sh vaqtini faqat telefon bilan o`tkazsa, bola uchun kitob majburiyatga aylanadi. Ammo oilada kitob o`qish odatga aylansa, farzand uchun bu tabiiy ehtiyoj bo`lib qoladi. Zero, kitobxon jamiyat, avvalo, oiladan boshlanadi.

Hattoki, bugungi kunda kitob sotib olish modaga aylandi. Bu juda yaxshiku, deb quvonishingiz mumkin, lekin qaniydi men ham shunday quvonsam. Afsuski, bugun ko`pchilik ijtimoiy tarmoqlarga rasm joylash va o`zini ko`z-ko`z qilish uchun “trenddagi” kitoblarni sotib olayotganining guvohi bo`lmoqdamiz. Ba`zilari hatto kitobda nima yozilganliginiyam bilmaydi, o`qib ko`rmagan. Ayniqsa, turk yozuvchilarining “Kelganimda uyda bo`l”, “Yolvoraman, xiyonat qilma”, “Kaktuslar ham gullaydi”, “To`siqlarga qaramay sevdik”, “Ba`zilar olisdan sevarlar” kabi faqat psixologik tavsiyalardan iborat kitoblari chiroyli muqovasi sababligina sotib olinyapti va ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalmoqda.

Kitob millat ongini tarbiyalaydi, charxlaydi, komillikka chorlaydi, Haqqa yaqinlashtiradi. Agar insonlar kitobni unutib, bilimga e`tabor bermasa, bu jamiyatning tanazzuliga olib keladi. Bilimsiz va tafakkursiz avlod esa nafaqat o`z kelajagini, balki butun jamiyatni ham xatar ostiga qo`yadi. Shu bois, har birimiz kitobga mehr uyg`otish, bilim olish va tafakkur qilishni targ`ib qilishimiz lozim. Shunday ekan, kitobxonlikni rivojlantirish faqat shaxsiy mas`uliyat emas, balki jamiyatni bilimli va tafakkurli qilish yo`lida muhim qadamlardan biridir. Har birimiz- ota-ona, o`qituvchi va yoshlar- bu jarayonda teng mas`uliyatga egamiz. Mulohazalarimni Prezidentimizning quyidagi so`zlari bilan yakunlamoqchiman: “Men har doim yoshlar, ta`lim, bilim-bilim deb ta`kidlayman. Bilim “o`tda yonmaydi, suvda cho`kmaydi”. Qancha ko`p bilim egallasak, kelajak bizniki. Uchinchi Renessans poydevorini yaratamiz deb o`zimizga g`oya olganmiz. Bu poydevorni kim yaratadi? Faqat bilimli yoshlar”. Darhaqiqat, kecha ham, bugun ham, bundan yuz yil keyin ham, televizor ko`rayotganlarni kitob o`qiydiganlar boshqaradi!